

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

**«SUV XO'JALIGINI
AVTOMATLASHTIRISH VA
MEXANIZATSIYALASH»
FAKULTETI**



«GUMANITAR FANLAR» kafedresi

**«ESTETIKA» FANIDAN YOSHLAR ESTETIK KAMOLOTIGA SALBIY
TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA "OMMAVIY MADANIYAT"
HAMDA UNING YECHIMINI O'RGANISH BO'YICHA**

USLUBIY KO'RSATMA

TOSHKENT 2015

*Ushbu uslubiy ko'rsatma institut ilmiy - uslubiy Kengashining
30 may 2015 yildagi, 8 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya
etildi.*

Ushbu uslubiy ko'rsatmada "Estetika" fanidan yoshlar estetik kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va "ommaviy madaniyat" hamda uning yechimi mavzusi bo'yicha tayyorlangan bo'lib, unda dars jarayonining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Unda jumladan "Keys-stadi", "T-sxema", "Blits-so'rov" kabi usullar keltirilgan. Uslubiy ko'rsatma bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalar dars jarayonida o'z mustaqil fikrlarini erkin bayon qilish, guruhlarda ishlash, tez fikrlash kabi imkoniyatlari yaratiladi.

Uslubiy ko'rsatma professor- o'qituvchilar va bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

M.U.Turdiboeva o'qituvchi
M.A.Xakimova, o'qituvchi

Taqrizchilar:

T. Sultonov TDIU "O'zbekistonda
demokratik jamiyat qurish
nazariyasi va amaliyoti" kaf. dots.
X.Xudoyqulov p.f.d. prof.v.b

YOSHLAR ESTETIK KAMOLOTIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA "OMMAVIY MADANIYAT" HAMDA UNING YECHIMI.

KIRISH

“Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar” mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish bo‘yicha fakultativ o‘quv kursidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda “Keys stadi”ga asoslangan o‘qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan. Ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash davlatning biror bir ijtimoiy uyushmasining ishi bo‘lmay har birimizning vazifamizdir. Beparvolik va loqaydlik o‘z manfaatlarini jamoat manfaatlaridan ustun qo‘yishdan, xudbinlikdan, kelajak haqida qayg‘urmaslikdan, o‘ziga ham o‘zgalarga ham ishonmaslikdan, qo‘rqoqlikdan kelib chiqadi. Jamiyatning kelajagini o‘ylaydigan inson hech qachon tevarak atrofdagi hodisalarga beparvo loqayd bo‘lmaydi. Zararli, yot jarayonlarni fosh qiladi, ularga qarshi fidoyilik bilan kurashadi. Shuning uchun Islom Karimov bu masalani alohida ta’kidlaydi: “Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda xushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi”¹. Aynan ana shu muammolarni oldini olish yo‘llarini ishlab chiqish “Keys stadi”da asoslanadigan o‘qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkmlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlariga qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Quyidagi keys – ma’naviy hamkorlik va komil insonning aqliy, ahloqiy , ma’naviy fazilatlarini yuksak bo‘lishi, kishilarning chuqur va zamonaviy bilim, keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash salohiyatiga ega bo‘lishi, uning yuksak ma’naviy kamolot sohibi bo‘lishining asosiy shakli – yuksak ma’naviyatning muhim omili ekanligini ko‘rsatib berishga, ma’naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar va ularni oldini olish yo‘llarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

¹И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч.

Pedagogik annotatsiya

O'quv predmeti: *Estetika.*

Mavzu: “Ommaviy madaniyat” va uning g'ayri estetik ko'rinishlari.

Keysning asosiy maqsadi:

Bugungi globallashuv va tahlikali zamonda milliy manfaatlarimizga zid va begona g'oyalarni jamiyatimizga tahdid solayotganligini, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar borligini ko'rsatib berish hamda tahlil qilish, ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- globallashuv jarayonlari, uning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib berish;
- ma'naviy barkamol va komil insonning aqliy, axloqiy, ma'naviy fazilatlarini yoritib berish;
- muammoli vaziyatlarni yechishda nazariy bilimlarni qo'llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topish.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari zarur:

Talaba bilishi kerak:

Globallashuv, ma'naviyat, ma'naviy barkamol inson, komil inson, dunyoqarash, egotsentrizm, “ommaviy madaniyat”, milliy mafkura, g'urur va or-nomus, vijdon, mas'uliyat, burch, xudbinlik.

Talaba amalga oshirishi kerak:

- mavzuni mustaqil o'rganadi;
- muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- g'oyalarni ilgari suradi;
- ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- ma'lumotlarni qayta taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Talaba ega bo'lmog'i kerak:

- kommunikativ ko'nikmalarga;
- taqdimot ko'nikmalariga;
- hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalariga;
- muammoli holatlarni tahlil qilish ko'nikmalariga.

Manbaalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov M. Egotsentrizm – yovvoyilik falsafasi. Xalq so'zi, 2006 yil 11 oktyab.

2. Mixliev P. Ommaviy madaniyat – ma'naviyat kushandasi. Xalq so'zi, 2008 yil 23 yanvar.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsiyanomasi:

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhasiz bo'lib, vaziyat davriy ketma-ketlikda o'tmishdan bugungi kun tartibida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan "Ma'naviyat asoslari" va "Milliy g'oya" fanlarida foydalanish mumkin.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo'yicha ma'naviyat taraqqiyot mezonlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhviy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egalash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish.

**Beparvolik va loqaydlikka yo'l qo'ymaslik, xushyorlik va jonkuyarlik
(1-vaziyat)**

Hozirgi vaziyatda insoniyat hayotida katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va SPID singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularni oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasidir.

"Menga nima" deb qarash, loqaydlik, beparvolik, o'zini, o'z manfaatini hammadan ustun qo'yish, xudbinlik, hamma, hamma narsalar mening huzur halovatimga xizmat qilishi kerak deyish, shuhratparastlik, kibr, mahmadonalik,

tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik, egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning belgisidir.

Masalan, ikki nafar o'smir mahallamizda sigaret chekib turibdi. Ilgari buni ko'rib, "Ie. Nega chekadi-ya bu bolalar", deb tanbeh berardik. Bugun esa to'xtab, gapirishga irodamiz yetmaydi. Ichimizdagi xudbinlik "Nima qilaman kayfiyatimni buzib. Qo'y indama, menga nima, bolaga ota-onasi tarbiya bersin", - deb, beparvolik bilan o'tib ketamiz. Oradan ma'lum vaqt o'tgach mahallada sigaret chekib turgan bolalarning soni ko'paya boshlaydi. Vijdonimiz qiynalib, bolalarga tanbeh berishga yana harakat qilamiz. Hozirgi o'smirlar ham anoyi emas. Betga choparlighi bor. "Nima ishingiz bor. Amakimmisiz, xolammisiz", deydi. Biz esa, "menga nima", - deb yo'limizni davom ettiramiz. Chunki ishlarimiz juda ko'p, qaergadir shoshilyapmiz. Bizning gaplarimiz o'spirin bolalarga yoqmaydi. Ma'lum bir vaqt o'tgach, o'spirin bolalar sekin-asta giyohvand modda iste'mol qila boshlaydi. Mahallada birin ketin ayanchli voqealar ro'y bera boshlaydi. O'g'irlik, mushtlashishlar, zo'ravonlik, tartibsizlik.... Qaerdan keldi bu illat? Kim aybdor? Qo'shni xonadonda istiqomat qilayotgan bola giyoxvand moddani me'yordan ko'proq iste'mol qilgani tufayli olamdan o'tdi. Oradan yana bir necha kun o'tgach yana falokat. Qo'shni ayolning farzandi mushtlashib og'ir jarohat olibdi. Endi mahalladoshlar insoniylik va odamgarchilik haqida qayg'urib, qo'shnilardan ko'ngil so'rashga kiradilar.

Bobolarimiz: "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona" degan, shunga amal qilgan. Ko'rayapsizmi? Lekin nega biz bobolar udumiga amal qilmadik? Avlodlar haqida qayg'urmadik. Boshimizga birin ketin kulfatlar tushgandan keyingina odamiylik va insonparvarlik haqida o'ylab qoldik?

Odam qanday qilib egotsentrist bo'lib qoladi?

Ota-onaning pedagog dastidan. Qanday qilib? Ota-ona o'zlari dunyoga keltirgan bolasini yeru-jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning markazi bo'lishni) o'rgatishadi. Bola nima qilsin? O'rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida: "Faqat mening bolamga yaxshi bo'lishi kerak. Bolam baxtli bo'lishi kerak" degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar.

Bolasining istagan, hatto istamagan, so'ramagan narsalarini ham uyub tashlashadi. Mehnatni, birovga g'amho'rlikni, boshqalar ham xuddi o'zi kabi odam ekanligi, ularning ham xurmati, manfatlari borligini eslatmaydilar.

Bola bog'chasiga boradi. O'zidek bolalar bilan birinchi uchrashuv. U boshqalardan ota-onasinikidek g'amxo'rlikni kutadi. Bunday g'amg'xo'rlikni

ko'rmagach talab qiladi. Birinchi uchrashuv – jamoa bilan birinchi to'qnashuvga aylanadi. So'ngra yig'laydi.

Maktabda muomala, murosa, burchni bilmaydi. Mas'uliyatsiz. Jon kuydirmaydi. Ota-ona buni qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa maktabga ko'chiradi. "Katta bo'lsa hammasi joyiga tushib ketadi", deb o'zlarini aldaydilar. U katta bo'ladi. Unga qo'shilib talablari, ishyoqmaslik, mas'uliyatsizlik, boshqa illatlari ham voyaga yetadi. Kuchga kiradi.

Ota-onaning belidan kuchi, cho'ntagidan qurbi ketadi. Ular natijada, keraksiz odamlarga aylanib qoladilar.

Xudbin yigit endi jamoaviylik, ko'pchilik bo'lib yashash tartib-qoidalariga, burchlariga to'qnashadi. Birinchi to'qnashuvdayoq yengiladi. "Men yaxshi – hamma yomon" degan qulay yolg'on qobig'iga uy qurib yashay boshlaydi. Shunday qilib, ota-onaning, odamlarning loqaydligi, jamiyatdan, hayotdan asossiz norozi egotsentristlarni paydo qiladi. Ma'naviy qarovsizlik, burchsizlik o'smirni giyoxvandlarga, jinoyatchilarga, kim mo'may pul va'da qilsa o'shalarga topshiradi.

Shu tariqa egotsentrist xudbinlar jabrini birinchi ularning ota-onalari tortadi. Keyin boshqalar. Chunki tushuntirib, odamlarga yaxshilik qilish kerak desangiz, "buning tomi ketibdi", deb o'ylaydi. "Vatanga nima berding?" desangiz, u: "Vatanim menga nima berdi?" deb o'qrayadi. Chunki u tug'ilgani, yashayotgani borligi uchun hamma unga nimadir berishi kerak. U esa hech kimga hech narsa bermasligi kerak. U sizga "foydalansa bo'ladigan yo bo'lmaydigan narsa" – deb qaraydi, inson deb emas, Vataniga ham. Shunday yashab o'tadi. Bizlarni bu ko'yg'a tushishdan xudning o'zi asrasin.

Egotsentrizm nima? Ya'ni "egotsentrizm xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazadigan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat, aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi".

"Menga nima" deb qarash, loqaydlik, bepisandlik, o'zini, o'z manfaatini hammadan ustun qo'yish, xudbinlik, hamma, hamma narsalar mening xuzur-xalovatimga xizmat qilishi kerak, deyish, shuhratparastlik, kibr, maxmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning belgilaridir. Xalqimizda xudbinlar – faqat o'zini ko'ruvchilar to'g'risida: "Yo'ldan ozgan", "Aynigan" degan iboralar yuradi. Bular ilgari el ichida ko'p bilan yurib, keyin ko'pdan ayrilib, o'z qobig'iga kirib olgan, elga aralashmaydigan odam haqida. Atoqli yozuvchilarimiz xudbinlikning o'zbeklikka isnodligini turli personajlar tilidan aytirganlar. Bunga misol "Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz" – deydi O'zbek oyim Yusufbek xojiga ("O'tgan kunlar". Abdulla Qodiriy). Yoki "Bo'ston buvi

xarakterida ... hukmronlik va o'z ra'yini o'tkazishga moyillik, o'jarlik va xudbinlik kuchli" ("Ayajonlarim". Abdulla Qaxxor).

3000 yillik tariximizda to'plangan o'zbek maqollari farzandlarimizni egotsentrizmdan ximoya qilishga birlashtirishga chorlaydi. Xudbinlik egotsentrizmni qoralaydi: "Kengga – keng dunyo torga – tor dunyo", "Yomon – o'z g'amida, yaxshi – el g'amida", "Dindan chiqarsang ham eldan chiqarma", "Boylik boylik emas – birlik boylik", "Oti birning – joni bir", "El qadrini bilmagan, har baloga yo'liqadi", "O'zim degan o'rdan chiqolmas", "Qirq kishi bir yon bo'lsa, qing'ir kishi bir yon bo'lar".

Bizda ana shu kasalning bir parchasi – loqaydlik bor. Atrofimizda bo'layotgan ulug', ertaga o'zbek nomini olamga doston qiladigan tarixiy ishlarni sezmaslik.

Ijtimoiy hamkorlik – azaliy boyligimiz. Lekin u ishlatilsagina foyda keltira boshlaydi. Xuddi dastgoh, mashina, yer, kompyuter oyoq ostida yotgan lekin biz bilmayotgan oltindek ishlatilmasa ulardan foyda yo'q. Zarar bor. Jamoaviylikning yaxshiligini aytib – aytib, amal qilinmasa ham zarar bor. Afsuski, ba'zi xollarda faol fuqarolik mavqeimizni qaerda, qanday namoyon qilishda ikkilanamiz, tortinamiz, andisha qilamiz, vaholanki, biz qurayotgan fuqarolik jamiyati taomillari mustaqillikni mustahkamlash, uni ximoya qilishda faollikni har kuni, hamma joyda talab qiladi.

Masalan, ikki nafar o'smir sigaret chekib turibdi. Ilgari buni ko'rib, "Ie.Nega chekadi-ya bu bolalar", deb o'tib ketardik. To'xtab, gapirishga irodamiz yetmaydi. Ichimizdagi xudbinlik "Nima qilasiz kayfiyatingizni buzib. Qo'y indama", - der edi. Vijdonimiz sapchib o'rnidan turar edi-yu, xudbinlik uni yengar edi. "Tarki odat – amri mahol", lekin ichimizdagi xudbinlikka qarshi birinchi qadamni qo'yish kerak!

Hozirgi o'smirlar ham anoyi emas. Betga choparligi bor. "Nima ishingiz bor. Amakimmisiz, xolammisiz?", deydi. Shunda: "Ha. Amakingman. Ha. Xolangman. Bas qil!", - deya olaylik.

Shoshayapsizmi? Xo'p. Norozilingingizni qat'iy bildirib yo'lingizda davom eting. Sizdan keyin kelayotgan xuv anovi talaba yigit, undan keyin kelayotgan qo'lida soyabon tutgan ayol o'smirlarga "Bas qil!" degan milliy talabni qattiq qo'ysin. Ulardan keyigi to'rtinchi, beshinchi, o'ninchi kishi ham shu talabni qo'ysin.

Ko'rasiz. Bu o'smirlarga yoqmaydi. Sizga o'qarayib qaraydi, qo'pol gapiradi. Lekin oxiri tan beradi. Sigaretini tashlaydi. Ko'ngilchan bo'lmay, qattiq talabni qo'ya olsak, bas. Mabodo ertaga u yana shu qiliqni boshlasa, yana ikki, besh vatandoshining dashnomiga duch keladi. Mana, keng jamoaviy yaxshilikning bir yomonlik ustidan bir g'alabasi.

Kim biladi deysiz, mana shu uch-to'rt vatandoshi 3 minutdan ajratgan 10-12 minut vaqt O'zbekistonning bir farzandini yomon yo'ldan qaytarib qolgandir. Balki u sizning, balki, mening farzandimdir.

Bir-birimizga milliy g'oyamiz, bir-birimizga farzand tarbiyasi uchun yordam berishdek ma'naviy burchimiz bor. Bobolarimiz: "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona" degan, shunga amal qilgan. Ko'rayapsizmi? Hech bir yangi kashfiyot kerak emas. Bobolar udumiga amal qilsak bas. Chunki shu Vatan barchamizniki. Unda voyaga yetadigan, yashaydigan avlodlar ham.

Egotsentrist kim? Dunyoning, hayotning markazi – men, deb o'ylaydigan, shunga amal qiladigan odam. Uning o'zidan o'zga najoti, suyanchig'i yo'q. U o'zini tutib olguncha ota-onasiga tayanadi. Aniqrog'i, ota-onalarida qilgan chiroyli, sovuq ko'zli, ochko'z go'dak – bola – o'smir – yigit – kishi – tajang mo'ysafid.

Bunyodkor, oqibatli, axil o'zbekchiligimiz bor bo'lsin.

Yevropalik bir tadbirkor O'zbekistonda 3-4 yil muqim yashab, tijorat qilibdi. Safari qarib ketar vaqti yetganda kamgap, g'amgin bo'lib qolibdi. Boisini so'rashsa, indamay bosh chayqar emish. Oxiri, "ketar jafosi"ga bag'ishlab, osh qildiribdi. Zarbop to'n kiydirishibdi. Ana shunda janob o'zbek hamkorlariga yorilibdi.

"Shu paytgacha yaxshi pul topdim. O'g'limga yordam qilib keldim. Vatanimga qaytib borgach, nafaqaga chiqsam, avvalgidek pul topa olmayman... hech kimga keraksiz predmetga aylanaman. O'lsam o'g'lim bilmaydi. Bilganda ham xafa bo'lmaydi. To'rt yil O'zbekistonda yashadim. Qishloq, maxallalarda bo'ldim. O'zbeklarning turmushi haqiqiy, insoniy turmush ekan. Yevropada keksayganingda bebaxtlik, xorlik boshlanadi. O'zbeklarda esa hayot gashtini surish boshlanar ekan. Jismim G'arbga ketayotir. Ko'nglim O'zbekistonda qolayotir", - debdi namlangan ko'zlarini jovdiratib

Bu ne hol?

Bu – 61 yoshli insonning, odamgarchilik hududidan Vatani – xudbinlik hududiga qaytayotgan odamning vidolashuvi emasmi?

Bu - biz uchun odatiy, ammo G'arbda topilmaydigan asl o'zbek turmush tarziga bir yevropalikning ta'zimi emasmi?!

"Ommaviy madaniyat" – ma'naviyat kushandasi

(3-vaziyat)

"Ommaviy madaniyat" G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan xolda, "pop-kul'tura"

(ya'ni "ommaviy madaniyat") deb atashadi. Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha hali ilm fanga "antikultura" ("ayrimadaniyat") degan ilmiy tushuncha shakllanmagani uchun "Pop (ommaviy) madaniyat" tushunchasi nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki "ommaviy madaniyat" aslida madaniyatsizlik, ya'ni madaniyatsizlik va ahloqsizlik sinonimidir. Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining "Mona Liza" ("Jakonda") asarini kulgu qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va "Mo'ylovli Jakonda" asarini yaratgan. Tadqiqodchilarning fikricha, mana shunday "achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgu" – "ommaviy madaniyat" faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. "Ommaviy madaniyat" namoyondalari qora, zaharxanda, behayo kulgini "isyon ifodasi" deb bilishadi. "Nimaga qarshi isyon" degan savol tug'iladi. Agar "pop madaniyat" dunyoga "ehson" etayotgan "pop art" ("tasviriy san'at" desa ham bo'ladi), "pop muzika", "pop adabiyot" natijalariga qarab xukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at – alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari "pop madaniyat" tarafdorlarining o'ta darajada g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. "Pop art" – ommaviy san'at shu xulosa manbaida vujudga kelgan. Chunonchi "ommaviy madaniyat" namoyandalaridan biri Karl Manning fikricha, atrof-borliqda, maishiy hayotda mavjud barcha narsalar (masalan, konserva bankalari, siniq tish cho'tkalari, mashina, vodoprovod kabilarning zanglagan bo'laklari, turli suratlar, jurnal-gazeta qiyqimlari ham) hayot bag'ridan alohida ajratilib, ularga muayyan tartib berilib, odamlar nazariga tutulsa, bu oddiy chiqindilar baayni arxeologik qazilmalar chog'ida topilgan qadimgi yunonlar davriga xos osori atiqalarday o'zgacha ahamiyat kasb etib, "san'at, madaniyat namunalari" qatoridan o'rin olar emish.

"Pop muzika" namoyandalari ijro etayotgan qo'shiq mazmunlari esa, avvalo, she'riyatning oddiy talablariga javob bermaydi yoki ular ko'proq ko'chada mavjud behayo, jargon iboralarga – qadriyatlarni, insoniy ezguliklarni kinoya, mazah qiladigan so'zlarga asoslangan. Xullas, erkinlik, demokratiya "namunalari" deb tavsiya etilayotgan "pop muzika" matnlari bilan haqiqiy she'riyat hamda asl xalqchil did, sog'lom ruhiyat, ma'naviyat o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

1964 yilda AQShda ikki muallif T.Sazern va M.Xoffenberg hamkorligida yozilgan "Kendi" ("Asal qiz") nomli romanni nashrdan chiqardilar. Keyinchalik bu kitob qayta va qayta katta miqdorlarda amerikalik kitobxonlarga taqdim etildi.

Ushbu roman asosida yaratilgan kinofil'm kinotomosha bozorida keng tarqaldi. "Kendi" qahramoni, "Asal qiz" deb ta'rflangan juvon duch kelgan odam bilan to'shakda aysh ishrat qilishdan charchamaydi. Uning ishqibozlari – turli diniy va siyosiy qarashli shaxslardir. "Kendi" romani Amerika adabiyotida shaklangan va keng tarqalgan romantik tabiatli, shirin va go'zal o'y-hayollarga beriluvchan qizlar timsolini keskin hajv qiladi, ularning ustidan kuladi. Badiiy mahorat talabalaridan ancha pastda turadigan, ammo "ko'ngilochar"lik mavzui muxlislarini oshufta etgan bu kitobga AQSH adabiyotshunoslari: "Madaniy tanazzulda oldinga qarab qo'yilgan ulkan qadam", - deya kinoya bilan baho berishdi. Xuddi shu kitob bilan ayni bir vaqtda AQShda Jon Pechi ismli yozuvchining "Tungi shahar" nomli romani chop etildi. Kitob saxifalarida shahardagi tun – jinoyatlar bazmiga aylanadi, inson shaxsi va uning qadri esa mis chaqaga arzimaydi. Bu roman "tubanlik va qabohat – inson tabiatini belgilovchi haqiqatdir", degan g'oyani tasdiqlash uchun bitilgan.

Shu o'rinda zarur bir izoh: "pop (ommaviy) madaniyat"ning namoyondalari va targ'ibotchilari "pop adabiyot"ni unchalik tan olishmaydi. Ularning fikricha "adabiyot – bu so'z san'ati" degani. "Pop (ommaviy) madaniyat" esa san'atga, jumladan, so'z san'atiga qarshi. Aniqrog'i, "san'atsiz so'z" ya'ni yovvoyi, dag'al, tarbiya, ahloqni xush ko'rmaydigan "ko'cha so'zlari"ga moyil. Biroq ular xohlaydimi yoki yo'qmi, aynan G'arb olamida bemaza qovunning urug'iday ko'payib, tomir oatyotgan "ommaviy madaniyat" ta'sirida "Pop (ommaviy) adabiyot" ham tug'ilyapdi. Va bu "adabiyot" "ommaviy madaniyat"ning tuban g'oyalari targ'ibotiga xizmat qilmoqda.

Yuqorida biz G'arbda "ommaviy madaniyat"ning tarixi, tug'ilish manbaalari to'g'risida so'zladik. Hozirchi? Hozirga kelib esa bu tamoyillar yanada g'ovlab, tomir otayapti. Masalan, "pop muzika"ga xos o'sha ritmik "bit" (zarb), qo'shiq niqobidagi alaxsirash, valdirashga yaqin didsiz "repp"lar ta'siri dunyo miqyosida tarqalib, milliy mumtoz va xalq musiqa san'atidan odamzotni uzoqlashtirmoqda. G'arb davlatlarining ayrimlarida "ommaviy madaniyat" tarqatayotgan "pornografiya" (sharmsizlik, hayosizlik) hamda sadizm (zo'ravonlik) targ'iboti yo'lidagi g'ovlar, qarangki, sud qarorlari asosida, birin ketin olib tashlanyapdi. Hatto AQSH maktablarida "Yangi rok" musiqalari o'quv dasturlariga kiritilgan...

"Ommaviy madaniyat" maktabining "natijalari" esa yaqqol ko'rinib turibdi. Masalan AQShning ayrim maktablarida sodir etilayotgan portlashlar, bolalarning savdoyi, vas-vos kimsalar qo'lida qurbon bo'layotgani, yoshlar fe'lida kuchayib borayotgan agressivlik jahon ommaviy axborot vositalari orqali hammaga ma'lum. "Ekkaningni o'rasan" deb shunga aytsalar kerak-da. Afsuski, yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi globalizm sharoitida, G'arbdagi "markazlar" bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida G'arb hayoti

“jozibalari”ni, jumladan, “ommaviy madaniyat” ta’sirini “erkinlik shabadalari” tarzida imkon qadar keng yoyishga yeng shimarib harakat qilmoqdalar.

Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod g’arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyoti, san’atining ilg’or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g’arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o’zi “g’arbning muammosi” sifatida baholayotgan “ommaviy madaniyat”ning ma’naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

Qolaversa, dunyoqrash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz lozim. Masalan, “Ogohlik” iborasining ma’nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib, ancha keng miqyosda tushuntirishimizga to’g’ri keladi. Ya’ni, bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma’naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik manfaatlar yo’nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, “ommaviy madaniyat”ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilishni ham o’z ichiga oladi. Iloji bo’lsa, mamlakatimiz ta’lim tizimining – maktablardan tortib to oliy ta’lim muassasalarigacha bo’lgan barcha bosqichlari o’quv dasturlariga ana shunday keng, yuksak malakali, ilg’or zamonaviy, ma’no-mazmunli, maxsus “Ogohlik” dasturini kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu o’ylab ko’riladigan muhim va jiddiy masaladir.

O’quv – uslubiy hujjatlar

Jamiyatimiz taraqqiyotiga rahna solayotgan salbiy illatlar

Egotsentrizm – xudbinlikning bir ko’rinishi bo’lib, faqat o’zini, o’z manfaatlarini o’ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkaziladigan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat, aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi.

Xudbinlik – o’z shaxsiy manfaatini jamiyat va atrofdagi kishilar, jamoatchilik manfaatlaridan ustun qo’yish bo’lib, salbiy xususiyatida qoralanib kelingan.

Jamiyat rivojining hayot kechirish iqtisodiy jihatdan og’ir bo’lgan shartlari irodasiz, faol bo’lmagan, o’z kuchiga va boshqalarga ishonmagan kishilarda paydo bo’ladi va rivojlanadi. Sharqona madaniyat xudbinlikka zid ravishda ko’pchilik manfaatini yuqori qo’yib kelgan. Hozirgi davrda ham boylikka ruju qo’ygan, o’zini har narsadan ustun qo’yyuvchi uchrab turadi. Xudbinlik insonda boshqa salbiy sifatlarni ham keltirib chiqaradi. Mafkuraviy kurash keskinlashgan, yangi jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda xudbinlik katta zarar keltiradi.

Loqaydlik – atrofida kechayotgan jarayonlarga, jinoyatlarga befarqlik, ko'rib ko'rmaganga olish, o'zini olib qochish. Loqaydlik o'ziga, boshqalarga ishonmaslikdan, qo'rqqoqlikdan, o'zini tinchini o'ylashdan kelib chiqadi. Jamiyat muammolaridan o'zini chetga olish, jamiyat va kelajak oldida mas'uliyatdan bosh tortish o'ta salbiy sifat deb baholanadi.

II. AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA-BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

2.1. Talabalarga yo'riqnoma

Ish bosqichlari	Maslahatlar va tavsiyanomalar
1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Avvalo keys bilan tanishing. "Jamiyat taraqqiyoti rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar, dunyoqarash tarbiyasi maslali va ularning yechimi" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang
2. Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostiga chizib qo'ying. Vaziyat tavsifiga berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Ushbu vaziyat "Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularning oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasi va "ommaviy madaniyat" illatlaridir" tavsifida berilgan dalillarni sanab o'ting va qaysisi aniqlashtirilishi lozimligini aniqlang
3. Muammoli vaziyatni taxlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Asosiy muammo: Globallashuv jarayonlari va ma'naviy taxdidlar, ularning yechimi 1-muammo. Globallashuv jarayonining yoshlar ongiga salbiy ta'sir etish muammolarini aniqlash va yechimini topish. 1. Egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasi. 2. Loqaydlik, ya'ni atrofimizda bo'layotgan ulug', ertaga o'zbek nomini olamga doston qiladigan tarixiy ishlarni sezmaslik. 3. Ma'naviy va axloqiy qashshoqlik. 2-muammo. Yoshlarimizning ichki dunyosida, ma'naviy va

	siyosiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'ratuvchi ma'naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xatarlar. 1. "Ommaviy madaniyat" va uning tarixiy ildizlari. 2. "Ommaviy madaniyat"ning ma'naviy axloqiy tubanliklari va uning oqibatlari. 3. Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirish "ommaviy madaniyat"ning yemiruvchi ta'siridan muxofaza qilishdir. 3-muammo. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom barkamol naslning tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin? 1. Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning vujudga kelish sabablarini ko'rsating. 2. Ma'naviy barkamol insonni, komil insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamon talabi hisoblanadi? 3. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo'l-yo'riqlarini bugungi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda aniqlang. Quyidagi savollarga jaavob berishga harakat qiling. Asosiy muammo nimaga qaratilganligini aniqlang. Muammo ostidagi muammolar asosiy muammo bilan qanday o'zaro bog'liqligiga izoh bering. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilib – ob'ektning xolatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini taxlil qiling. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash zarurati oshib borishi sabablarini, uning millat, mamlakat va umuminsoniyat oldida turgan ulkan vazifalar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib bering.
4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarini izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting.

2.2. "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring

Muammolar	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
1-muammo. Globalashuv jarayoni-ning yoshlar ongiga salbiy ta'sir etish muammolarini aniqlash va yechimini topish. 1. Globalashuv jarayonining salbiy tomonlari. 2. Egotsentrizm va erkinlik niqobidagi axloqsizlik falsafasi.		

3. Loqaydlik, ya'ni atrofimizda bo'layotgan ulug', ertaga o'zbek nomini olamga doston qiladigan tarixiy ishlarni sezmaslik. 4. Ma'naviy va axloqiy qashshoqlik		
2-muammo. Yoshlarning ichki dunyosida, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ma'anviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xatarlar. 1. "Ommaviy madaniyat" va uning tarixiy ildizlari. 2. "Ommaviy madaniyat"ning ma'naviy –axloqiy tubanliklari va uning oqibatlari. 3. Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirish "ommai madaniyat"ning yemiruvchi ta'sirdan muxofaza qilishdir.		
3-muammo. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslning tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin? 1. Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning vujudga kelish sabablarini ko'rsating. 2. Ma'naviy barkamol insonni, komil insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamon talabi hisoblanadi? 3. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo'l-yo'riqlarni bugungi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda aniqlang.		

2.3. Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi

Keys – stadi uchun yozma ish talablari

1. Ish A4 standartdagi varaqning bir tomonida (2 varaqdan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.
2. Yozma ishni jihozlash tartibi:

- birinchi sahifaga o'ng tomondan talaba ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
- varaqning markazida keysning mavzusi yoziladi;
- so'ngra keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi.

2.4. Keys bilan ishlash qoidalar

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta'minoti har xil hajmda bo'lishi (bir varadan bir necha yuz varog'gacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo'lishi, axborot ko'pligi darajasi ham o'zgarishi mumkin bo'lgan – taxlilga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- taklif etilayotgan axborotlarni ko'rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang.
- vaziyatni tor istiqbolda ko'rib chiqmang: muammo birdaniga kichiklashib yoki umuman g'oyib bo'lishi mumkin;
- harakatlar rejasini vaziyatni tahlili tugallangan va muammo aniqlangandan so'ng shakllantiring.

2.5. Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajariladigan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Talabalar ro'yxati	Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan max. 6 b .	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan max. 4 b.	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari. Aniq ko'rsatilgan max. 10 b.	Jami: max. 20 b.

2.6. Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruxlar ro'yxati	Gurux faol mak. 1b	Ma'lumotlar Ko'rgazmali taqdim yetildi	Javoblar to'liq va aniq berildi	Jami Mak.
-------------------	--------------------	--	---------------------------------	-----------

			mak. 5 b	10 b
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				
8.				
9.				
10.				
11.				
12.				

8-10 ball – a'lo

6-8 ball – yaxshi

4-6 ball – qoniqarli

0-4 ball – qoniqarsiz

2.7. Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligini va tazyiqqa uchramasligi haqida ogoxlantirilishi zarur.

2.8. «T- sxema» texnikasi

- Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muxokama etiladi.

Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari afzallik va kamchilik-lari bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

-tanqidiy, taxliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvafaqqiyatli rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, hikoya qilishga imkon yaratadi.

- ma'ruza yakunida qo'llaniladi;

T- sxema qonun qoidalari bilan tanishib chiqadi.

Yakka tartibda yoki juft-juft bo'lib

T – sxemani to'ldiradi

O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflariga yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin.

Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin.

Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin.

T – sxemasi

Globallashuvning oqibatlari	
Ijobiy	Salbiy
Xalqaro integratsiya	O'tkir mafkuraviy ta'sir
Hamkorlik aloqalari	Mafkuraviy tazyiq
Xorijiy investitsiyalar	Mafkuraviy taxdid
Kapital va tovarlar almashinuvi	Mafkuraviy xuruj
Ishchi kuchining erkin harakati	Mafkuraviy bo'shliq
Yangi ish o'rinlari	Xatarli tahdidlar
Zamonaviy kommunikatsiya	Axborot xurujlari
Axborot texnologiyalari	Axloqiy buzuvchilik
Ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi	"Ommaviy madaniyat"
Qadriyatlarni uyg'unlashuvi	Egotsentrizm
Tsivilizatsiyalararo muloqot	Ma'naaviy negizlarga bepisandlik
O'zaro yordam imkoniyatlarini ortishi	Zo'ravonlik

III. O'QITUVCHI TOMONIDAN KEYSNI ECHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

Keysdagi asosiy muammo

Yoshlar estetik kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va "ommaviy madaniyat" hamda ularning yechimi

Muammoli vaziyatni yechish yo'llari

1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishamiz.

Avvalo keys bilan tanishib. "Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar va ularning yechimi" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqamiz. Muammoni yechish darajasini aniqlaymiz.

Hozirgi paytda insoniyat hayotiga kata xavf tug'dirayotgan xalqaro terrorism, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora va ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularni oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan egotsentrizm va erkinlik niqobidagi ahloqsizlik falsafasidir. Egotsentrizm xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazadigan zarari nuq tai nazaridan bu illat jaholat, aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi. "Ommaviy madaniyat" G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. "Ommaviy madaniyat", aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va ahloqsizlik sinovidir. Taassufli jihatida shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, ularning tegirmoniga suv quymoqda albatta xalqimiz, jumladan yosh avlod g'arb texnikasi, madaniyati, adabiyoti, san'atining ilg'or jihatlarini inkor etmaydi. Biroq g'arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o'zi "g'arbnings muammosi" sifatida baholanayotgan "ommaviy madaniyat"ning ma'naviy axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi. Chunki ma'naviyatda bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

2. Berilgan vaziyat bilan tanishamiz.

Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, biz uchun muhim bo'lgan satrlarni tagiga chizib olamiz. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'yamiz. Vaziyat tavsifiga berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatimizni jalb qilamiz:

- globallashuv;
 - ma'naviy taxdidlar;
 - egotsentrizm;
 - xudbinlik;
 - loqaydlik.
- o'zbek turmush tarzi;
 - tarbiya;
 - burch;
 - mas'uliyat,
 - muomala
- ommaviy madaniyat:
 - pop madaniyat;
 - pop musiqa;
 - ma'naviy qashshoqlik;
 - tubanlik;
 - erkinlik shabadalari;
 - ma'naviy bo'shliq.

3. Muammoli vaziyatning tahlili.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga harakat qilamiz. Mazkur holatda qabul qilinishi mumkin bo'lgan muammoning barcha yechimlarini topamiz:

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabalari	Vaziyatdan chiqib ketish sabablari
1-muammo. Globallashuv jarayonining yoshlar ongiga salbiy ta'sir etish muammolarini aniqlash va yechimini topish		
1. Globallashuv jarayonining sal-biy tomonlari. 2. Egotsentrizm va erkinlik niqo-bidagi ahloqsiz-lik falsafasi. 3. Loqaydlik, ya'ni atrofimizda bo'layotgan ulug', er-taga o'zbek nomini olamga doston qi-ladigan tarixiy ishlarni sezmaslik 4. Ma'naviy va ahloqiy qashshoqlik	1. Ma'naviy tahdidlar, mafkuraviy huruj, ma'naviy bo'shliq, axborot huruji, axloqiy buzqlik, "ommaviy madaniyat" kabi salbiy holatlar odatiy holga aylanmoqda. 2. Egotsentrizm xudbinlikning bir ko'rinishi bo'lib faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazilgan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat, aqida-parastlikdan aslo qolishmaydi. 3. "Menga nima" deb	1. Targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish hamda yoshlar ongida mafkuraviy im-munitetni kuchaytirish lozim 2. 3000 yillik tariximizda to'plangan o'zbek maqollari farzandlarimizni egotsentrizmdan ximoya qilishga, birlashtirishga chorla-yapdi. 3. Xudbinlik, egotsentrizmni qoralayapdi. Shu sababli: - har bir inson ma'naviy barkamollik darajasiga intilsin; - o'z haq-huquqlarini taniy-digan bo'lsin, buning uchun kurashsin;

	qarash, loqaydlik, bepisandlik, o'zini, o'z manfaatlarini hammadan ustun qo'yish, xudbinlik, hamma, hamma narsalar mening xuzur-halovatimga xizmat qilishi kerak deyish, shuxratparastlik, kibr, mahmadonalik, tajanglik, birovni eshita bilmaslik, xatosini tan olmaslik, sovuqqonlik, tanqidga chidamsizlik – egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan odamning belgilari. 4.Egotsentrizm va erkinlik niqobidagi ahloqsizlik falsafasi, loqaydlik, ma'naviy va ahloqiy qashshoqlik biz oldimizga qo'ygan maqsadlarga ziddir. Ular jamiyat rivojiga katta to'sqinlik qiladi.	- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyat-larini ishga solib samara-sini ko'rsin; - atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildirsa olsun; - shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg'un holda ko'rib faoliyat yuritsin. 4.Ma'naviy barkamol insonlar jamiyatni ma'naviy qashshoqlikdan qutqaradi. Buyuk ma'rifatparvar Abdul-la Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", degan o'gitiga amal qilishimiz zarur. Endilikda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'imiz mustaqil taraqqiyotimiz garovidir.
2-muammo. Yoshlarning ichki dunyosida, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ma'naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy hatlarlar		
1.“Ommaviy mada-niyat” va uning ta-rixiy ildizlari. 2.“Ommaviy mada-niyat”ning ma'naviy-axloqiy tubanliklari va uning oqibatlari 3.Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlan-tirish	1.Ijtimoiy hamkorlik – azaliy boyligimiz. Lekin u ishlatilsagina foyda keltira boshlaydi. Odam qanday qilib egotsentrist bo'lib qoladi? Ota-onaning pedagogik dasti-dan. Qanday qilib? Ota-ona o'zlari dunyoga keltirgan bolasini yeru-jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni	1. Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi. Boshqacha aytganda ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladi. Shuning uchun ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. 2. Ma'naviy barkamollik

“ommaviy madaniyat”ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilishdir.	(dunyoning markazi bo’lishni) o’rgatishadi. Bola nima qil-sin? O’rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida: “Faqat mening bolamga yaxshi bo’lishi kerak. Bolam baxtli bo’lishi kerak” degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar. Bolasining istagan, hatto istamagan, so’ramagan narsalarini ham uyub tashlaydilar. 2.Mehnatni, birovga g’amho’r-likni, boshqalar ham xuddi o’zi kabi odam ekanligi, ularning ham hurmati, man-faatlari borligini eslamay-dilar. “Ommaviy madaniyat” tarafdorlarining dasturiy qarashlari shundaki, ular insonni emas, aksincha, narsa-lar va buyumlarni e’zozlay-dilar; ma’naviy dunyoni emas, maishiy iste’molchilik his tuyg’ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma’na-viy pozitsiyasi – ma’naviyatni o’ldirish va “narsalarga qullik”ni rag’batlantirishdir. 3.Yurtboshimizning quyidagi sabog’i ibratlidir: “Biz sog’lom avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog’lom kishi deganda faqat jismoniy sog’lomlikni emas, balki sharqona odob-ahloq va umumbashariy g’oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”. Ma’naviy barka-mollik insonning dunyoqara-shi, e’tiqodi, ruhiyati, hulq-atvor normalari, ahloq-odobi bilan	insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi 3. “Ogohlik” iborasining ma’nolarini bugungi zamon sharoitidan kelib chiqib ancha keng miqyosda tushuni-shimizga to’g’ri keladi. Ya’ni, bugungi ogohlik xalqimiz, ayniqsa yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma’naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastliklar xataridan tashqari, ayni paytda jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va estetik manfa-atlar yo’nalishidagi oshkora va xufya kurashlarning keng miqyosdagi xatarli jihatlaridan, jumladan, “ommaviy madaniyat”ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilishni ham o’z ichiga oladi. Iloji bo’lsa, mamlakatimiz ta’lim tizimining – maktablardan tortib to oliy ta’lim muassalarigacha bo’lgan barcha bosqichlari o’quv dasturlariga ana shunday keng, yuksak malakali, ilg’or zamonaviy, ma’nomazmunli, maxsus “Ogohlik” dars-larini kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu o’ylab ko’ri-ladigan muhim va jiddiy masaladir
--	---	---

	bevosita aloqadorligi orqali ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.	
3-muammo. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom barkamol naslni tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin?		
1. Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning vujudga kelishi sabab-larini ko'rsating?. 2. Ma'naviy barkamol insonni, ko'mil insonni, sog'lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamon talabi hisoblanadi? 3. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo'l-yo'riqlarini bugungi shart-sharoitdan kelib chiqqan hol-da aniqlang?.	1. Ma'naviy tarbiya sohasida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish nihoyatda hatarli. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarida kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarish mumkin. Ayniqsa, bu sohada o'zibo'larchilik va lo'ttibozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. 2. Kishilarda, xususan yoshlar-da yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi 3. Eski tizim sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo'shliq jamiyat	1. Bunday vaziyatda eng avva-lo yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, mustaqillik tafakkuri, ma'naviyatini shakllantirish, maqsad, vazifa, vositalari, yo'llarini izlab topish, hayotga joriy etish orqali hal etish mumkin. 2. Ma'naviy barkamol insonlar jamiyatni ma'naviy bo'shliqdan qutqaradi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. 3. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar: - har bir inson ma'naviy barkamol inson darajasiga intilsin; - sharqona odob-ahloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olsin; - dunyoqarashi keng, e'tiqodi butun, ruhiyati, ahloq-odobi yuksak bo'lishiga intilsin; - xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va ravnaqini o'ylaydigan inson bo'lishga intilsin. Zotan

	uchun iqtisodiy-siyosiy inqirozga nisbatan ancha hatarliroq kechadi. Bunga keyingi vaqtlarda yuz bergan mudhish voqealar yaqqol misol bo'la oladi. Shu sababli tarixiy burilish davrlarida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim.	yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.
--	---	---

4. O'tkazilgan tahlillar va natijalar

Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holati aniqlangandan so'ng muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, “T – sxema” jadvalini to'ldiramiz.

Qanday insonni biz ma'naviy barkamol va komil inson deb hisoblaymiz?	Qanday insonni esa ma'naviy qashshoq inson deb hisoblaymiz?
• ma'naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi; • moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi; • ba'zan uyushtirilgan tuxmat, fitnalar uning ruhini tushira olmaydi; • har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma'naviy barkamol inson ma'naviyatini buza olmaydi, chiniqtiradi; • insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma'naviy, ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi.	• xudbin, boylik ketidan quvgan; • yengil-yelpi hayot kechirayotgan; • milliy mansubligini unutgan, o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmaydigan, kurashmaydigan; • tuban, loqayd, manqurt insonlar; • kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydigan; • o'z xalqining tarixini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan inson.

Yakuniy xulosa

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, ma'naviy barkamol va komil inson, eng avvalo fuqarolik burchini a'lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi ma'naviy barkamol va komil inson, har birimiz: “Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?” deb emas, balki: “Men

o'zim Vatanga nima berdim?" deb o'ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

IV. MUAMMOLI VAZIYATLARNI HAL ETISH BO'YICHA AMALIY MASHG'ULOTDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Ta'lim texnologiyasi modeli

8-mavzu. 2 soat	Ta'lim oluvchilar soni 30 ta
Mavzu:	Yoshlar estetik kaamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning yechimi
<i>Amaliy mashg'ulot</i> <i>Rejasi:</i> 1. Globallashuv jarayonining yoshlar ongiga salbiy ta'sir etish muammolarini aniqlash va yechimini topish. 2. Yoshlarning ichki dunyosida, ma'naviy va siyosiy dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va ma'naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xatarlar. 3. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin?	1. Keys mazmuniga kirish. 2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida "Blits-so'rov" o'tkazish. 3. Muammoni va uni uni yechish vazifalarini aniq ifoda etish. 4. "Keys-stadi"ni guruhlarda yechish. 5. Natijalar taqdimoti va muho-kamasini o'tkazish. 6. Muhokama etilayotgan muammoni "T-sxema" jadvali asosida tahlil etish. 7. Yakuniy xulosa chiqarish. Erishil-gan o'quv natijalariga ko'ra talabalar faoliyatini baholash.
Mashg'ulotning maqsadi: Bugungi globallashuv zamonida milliy manfaatlarimizga zid va begona g'oyalarni jamiyatimizga taxdid solayotganligini, bundan kimlar foydalanmoqchi bo'layotganligini tushuntirish, bu borada ogohlik hamda xushyorlik zarur ekanligini yoshlar ongiga singdirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• keys mazmunini mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; • "jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar, dunyoqarash tarbiyasi masalalari va ularning yechimi" muammosiga oid vaziyat bilan tanishtiriladi; • muammoni ajratib olishga o'rgatadi, taqoslashga, tahlil qilish-ga, umumlashtirishga ko'mak beradi;	• keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, yozma tayyorgarlik ko'radi; • "jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar, dunyoqarash tarbiyasi masalalari va ularning yechimi" muammosini yechish bo'yicha aniq vaziyatlarning ketma-ketligini aniqlaydi; • muammoli vazifalarni yechishda

• muammoni hal etish bo'yicha aniq harakatlar ketma-ketligini tushuntirib beradi; • muammoli vaziyatlarni yechishga sharoit yaratadi; • mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi.	nazariy bilimlarni qo'llaydi; • muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topadi; • yakuniy mantiqiy xulosalar chiqaradi.
<i>O'qitish usullari va texnikasi:</i>	“Keys-stadi”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” uslubi, “T-sxema”, “Baxs-munozara”
<i>O'qitish vositalari:</i>	Marker, qog'oz, doska, bo'r.
<i>O'qitish shakllari:</i>	Individual va guruhlarda ishlash.
<i>O'qitish shart-sharoiti:</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash:</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

4.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>o'qituvchi</i>	<i>talaba</i>
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni, vaziyat mazmunini aniq-laydi, informatsion ta'minotga tayyorgarlik ko'radi, “keys-stadi”ni rasmiylashtiradi, keysni ko'paytirish muammosini hal etadi. Mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishni, tavsiya etilgan adabiyotlarni o'qib o'rganishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar .

1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv fao-liyati natijalarini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. Hozirgi paytda insoniyat hayotiga katta havf tug'dirayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkoagressiya va OITS singari ofatlarni ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin bugungi kunda hamma ham bilavermaydigan, oshkora ko'zga tashlanmaydigan, ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar ham borki, ularni oldini olmasak, keyin kech bo'ladi. Bular G'arb olamida keng tarqalgan ego-tsentrizm va erkinlik	Tinglaydilar
--	--	---------------------

	niqobidagi ahloqsizlik falsafasi hamda “ommaviy madaniyat” kabi illatlardir. Insoniyatga yetkazila-digan zarari nuqtai nazaridan bu illatlar jaholat aqidaparastlikda n aslo qolishmaydi.	
	1.2. Mavzu bo'yicha ta'lim oluvchi-lar bilimlarini faollashtirish maqsadida blits- so'rov o'tkazadi. (1- ilova)	Savollarga javob beradilar
	1.3. “Keys- stadi” vazifasi va uning jamiyat taraqqiyoti rivoj-lanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rnini aniqlaydi. Amaliy mashg'u-lotning ish tartibi va natija-larini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Keys mazmuni	Tanishadilar

	balan yanada yaqinroq tanishib chiqishlari uchun talabalarga materiallarni tarqatib chiqadi.	
(60 II – boqich. Asosiy daqiqqa)	2.1. Keysda bor bo’lgan material-larni muhokama qilishni tashkil-lashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi.	Muhokama qiladilar
	2.2. Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o’tkazishni taklif qiladi.	Vaziyatni mustaqil ravishda tahlil qiladilar
	2.3. Talabalarni 3 ta kichik guruhlariga ajratadi. Mavzu bo’yicha tayyorlangan topshiriq-larni “Muammoli vaziyat” uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi. (2-ilova)	Guruhlarga ajratadi, yozib oladilar, topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.4. Kichik guruhlarda keys	Faol qatnashadila

	bilan yakka tartibda bajariladigan ish-lar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruh-larga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga im-kon yaratadi. Diqqatlarini kutila-digan natijalarga jalb qiladi.	r
	2.5. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarni bajarilishi qay dara-jada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi.	Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, baxs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar.
	2.6. Talabalarning fikrlarini	Tinglaydilar, guruhlarga berilgan

	umumlashtirib bo'lgach , o'qituvchi jamiyat taraqqiyoti rivojlanishiga asos bo'luvchi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi muammolar jamiyatda ma'naviy bo'shliq hosil bo'lishiga hamda ma'naviy qashshoqlikka olib keladi, - deb fikrni davom ettiradi. Shu sababli ushbu muammodan kelib chiqqan holda har bir guruhda "T-sxema" jadvalidan foydalanilgan holda "Qanday insonni biz ma'naviy barkamol va komil inson deb hisoblaymiz?", "Qanday insonni esa ma'naviy qashshoq inson deb hisoblaymiz?" – deb savol bilan murojaat qiladi.	topshiriqlarni bajaradilar. Taqdimotni o'tkazadilar. Mavzu bo'yicha yauniy xulosa chiqaradilar.
--	--	--

	(3-ilova)	
	2.7. Talabalarni taqdimotda ko'rsatilgan fikrlarini umumlashtiradi.	Tinglaydilar
III bosqich Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Bugungi mavzu dolzarb ekanligiga to'xtalib o'tadi. Ma'naviy barkamol va komil inson – milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyat-larni chuqur egallagan va unga amal qilgan, adabiyot, san'at, falsafa, huquqqa doir chuqur bilimga ega bo'lgan, jamiyatda mavjud barcha qonun qoidalarini, ahloq normalarini mustahkam o'zlashtirgan, diniy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan, unga to'la amal qiladigan, o'z kasbini yaxshi egallagan, ma'naviy	Eshitadi. Aniqlaydi.

	jihtadan yetuk shaxsdir. Shu sababli har bir inson ma'naviy yetuklik darajasiga intilishi, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq etishlari lozim ekanligini ta'kidlaydi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi.	
	3.2. Tavsiya etilgan muammo yechimlariga izoh beradi. Yana bir bor "Keys-stadi"ning amaliyotiga atroflicha to'xtalib o'tadi.	Tinglaydilar .

1-ilova

Blits-so'rov savol-javoblari

№	Savol	Javob
1.	Globalashuv deganda nimani tushunasiz?	Hayot sur'atlarini beqiyos darajada tezlashuvi.
2.	Yoshlar ma'naviyatini buzuvchi xatarlar	"Ommaviy madaniyat", diniy ekstremizm va terrorizm, giyoxvandlik, behayollik.
3.	Ma'naviy tahdid nima?	Tili, dini e'tiqodidan qat'iy nazar insonni erkin bo'lib yashashiga qarshi, uning ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy g'oyaviy, informatsion xurujdir.
4.	Egotsentrizm nima?	Egotsentrizm xudbinlikningbir ko'rinishi bo'lib, faqat o'zini, o'z manfaatlarini o'ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslikni bildiradi. Insoniyatga yetkazilgan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat, aqidaparastlikdan qolishmaydi.

5.	“Ommaviy madaniyat” deganda nimani tushunasiz?	“Ommaiy madaniyat” G’arb dunyosida o’tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G’arbda “populyar” yoki qisqartirilgan “pop-kulʼtura” (ommaviy madaniyat) deb atashadi. Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm fanda “antikulʼtura” (ayrimadaniyat) degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun “Pop (ommaviy) madaniyat” tushunchasi nochorlikdan qo’llanilmoqda. chunki "ommaviy madaniyat", aslida madaniyatsizlik, ya’ni ma’naviyatsizlik va ahloqsizlik sinonimidir.
6.	Axborot xuruji deganda nimani tushunasiz?	Insonni ruhiy boshqarish, unga ma’naviy hukmronlik qilishga intilish.

2-ilova

1-topshiriq

Guruhlarda ishlash uchun ekspert varaqlari

1-guruh

Globalashuv jarayonining yoshlar ongiga salbiy ta’sir etish muammolarini aniqlash va yechimini topish.

1. Globalashuv jarayonining salbiy tomonlari.
2. Egotsentrizm va erkinlik niqobidagi ahloqsizlik falsafasi.
3. Loqaydlik, ya’ni atrofimizda bo’layotgan ulug’, ertaga o’zbek nomini olamga doston qiladigan tarixiy ishlarni sezmaslik.
4. Ma’naviy va ahloqiy qashshoqlik.

“Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

2-guruh.

Yoshlarning ichki dunyosiga, ma’naviy siyosiy dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi va ma’naviy hayotimizni izdan chiqaruvchi jiddiy xatarlar.

1. “Ommaviy madaniyat” va uning tarixiy ildizlari
2. “Ommaviy madaniyat”ning ma’naviy-ahloqiy tubanliklari va uning oqibatlari

3. Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirish “ommaviy madaniyat”ning yemiruvchi ta’siridan muhofaza qilishdir.

4. “Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring

5.

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

3-guruh

Kelajak avlod haqida qayg’urish, sog’lom, barkamol naslni tarbiyalash jarayoni samaradorligini qanday oshirish mumkin?

1. Yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarning vujudga kelish sabablarini ko’rsating?
2. Ma’naviy barkamol insonni, komil insonni, sog’lom avlodni tarbiyalash nima uchun zamon talabi hisoblanadi?
3. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish yo’l-yo’riqlarini bugungi shart-sharitlardan kelib chiqqan holda aniqlag?

4. “Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari

3-ilova

2 – topshiriq

“T-sxema” jadvalini to’ldiring

Qanday insonni biz ma’naviy barkamol va komil inson deb hioblaymiz?	Qanday insonni esa ma’naviy qashshoq inson deb hisoblaymiz?

Foydalaniladigan asosiy va qo’shimcha adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O’zbekiston. 2012y.
2. O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: O’zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Asarlar to’plami. 1-19 jildlar. – T.: “O’zbekiston”, 1996-2011.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: “O’zbekiston”, 2010.
6. Karimov I.A. O’zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O’zbekiston”, 2012.

Darslik va o’quv qo’llanmalar

1. Yoqubov T. Matematik logika elementlari. – T.: “O’qituvchi”, 1996.
2. To’raev B. Logika: masalalar va mashqlar. – T.: 2009.
3. Xayrullaev M. Haqberdiev M. Mantiq. – T.: “O’qituvchi”, 1993.
4. Sharipov M. Fayzixo’jaeva D. Mantiq. O’quv qo’llanma. – T.: 2004.
5. Abdulla Sher, Bahodir Husanov. Estetika 2-nashr. Uslubiy qo’llanma. – T.: O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2010.
6. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. Darslik. T.: Yangi asr avlodi. 2009.
7. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Darslik. – T.: “O’zbekiston”, 1995.
8. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2010.
9. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg’unligi. – T.: “Universitet”, 2009.

10. Husanov B. Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisodmoliya. 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Falsafa. Qomusiylug'at. –T.: Sharq; 2004.
2. Raximov I. Mantiq. –T. 1995.
3. Xayrullaev M.M., Haqberdiev M. Mantiq. –T. 1993.
4. Sharipov M. Mantiq (Ma'ruzalar matni). –T. 2000.
5. Abdulla Sher. Ahloqshunoslik: Ma'ruzalar matni. –T.: 2000.
6. Umarov E. Estetika. –T. 1995.
7. Kamolova S., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. –T. 1993.
8. Valiev B. Mantiq kursi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar. –T. 1992.
9. Ro'zmetova D. Nurmatova va boshqalar. Mantiq fanidan uslubiy qo'llanma. TIMI 2004.
10. Sharipov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq.(Ma'ruzalar matni). T.: 2001.
11. L.Mavlyanova, V.Igoshin Estetika (kurs lektsiy) Toshkent 2004y.
12. Mustaqillik: ilmiy, izohli, ommaboplug'at. T. Sharq. 1999.
13. N.G'oyipov. Amir Temur davri ma'naviyati. –T.: FAN; 2001.
14. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud ahloq. –T.: O'qituvchi; 1992.
15. Sharipov M. Fayzixo'jaeva D. Mantiq. T. 2004.
16. Barkamol avlod orzusi. T.: Sharq. 1999.
17. Etika va estetika fanlaridan ma'ruzalar. T.: TIMI 2002. /1 (075) E-92/
18. Jumaboeva S. Shaxs va tarix (Axloq, ma'naviy va ma'rifiy mavzular bo'yicha uslubiy qo'llanma). T.: TIMI 2001. 17-bet. /1 (077) J-87/
19. Sher Abdulla. Axloqshunoslik (Etika). T.: 2000. 16 bet. /1 (077) SH-47/
20. Sher Abdulla. Axloqshunoslik. (Ma'ruzalar matni). T.: 2000. 174 bet.
21. Qo'ylieva T., Xakimova M. Etika (Axloqshunoslik) fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. (Lotin). TIMI 2012.

- 22.Qo'yliev T., Aslova L. Estetika (nafosatshunoslik) fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. (Lotin). TIMI 2012.
- 23.Qo'yliev T, Xakimova M. Mantiq fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. (Lotin va Krill). TIMI 2012.

Elektron ta'lim resurslari

1. ZIYO-net.uz
2. WWW.LOGIK.ru
3. WWW.Logik.Pdmi.ras.ru
4. Estetika texnicheskaya (www.humanities.edu.ru/db/msg/72992)
5. Onlayn leksi po estetike. (www.belportal.info/osnovnye-esteticheskie-kategorii/)
6. <http://www.ssu.runnet.ru>

Turdiboeva Mahsuda

Xakimova Maxruya

**«ESTETIKA» FANIDAN YoSHLAR ESTETIK KAMOLOTIGA SALBIY
TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA "OMMAVIY MADANIYAT"
HAMDA UNING YeCHIMINI O'RGANISH BO'YICHA**

Uslubiy ko'rsatma

Muharrir:

M.Nurtoeva

Musahhih:

N.Abdurahmonova

Bosishga ruxsat etildi _____

Qog'oz o'lchami 60×84 1/16

Hajmi 2,2 b.t. 20 nusxa

Buyurtma №

TIMI bosmaxonasida chop etildi

Toshkent – 100000, Qori-Niyoziy ko'chasi 39-uy

